



Ilhom NAZAROV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi,
E-mail:shixnazarmadiyorov@gmail.com

Dots., Q.Olloyorov taqrizi asosida

HUQUQIY MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada, huquqiy madaniyat tushunchasining ma'nosi, uning falsafiy asoslari va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilindi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning huquqiy bilimi, ongi va munosabatini qamrab olgan bo'lib, uning shakllanishida ta'lim, huquqiy tarbiya va ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchaga turli fanlar – falsafa, sotsiologiya, psixologiya va huquqshunoslik nuqtai nazaridan yondashish zarurligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, shaxs va jamiyat, huquqiy bilim, ong va munosabatlar, huquqiy ong, ichki munosabat, erkinlik, adolat va ma'naviy qadriyatlar, adolat, erkinlik va mas'uliyat, huquqiy munosabat, qonun ustuvorligi, fuqarolik pozitsiyasi.

THE CONCEPT OF LEGAL CULTURE AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article analyzes the meaning of the concept of legal culture, its philosophical foundations, and its importance in the development of society. Legal culture encompasses citizens' legal knowledge, consciousness, and attitudes, while education, legal upbringing, and the social environment play a crucial role in its formation. It is emphasized that this concept should be approached from the perspectives of various sciences, including philosophy, sociology, psychology, and jurisprudence.

Key words: Legal culture, individual and society, legal knowledge, consciousness and attitudes, legal consciousness, internal relations, freedom, justice and moral values, justice, freedom and responsibility, legal relations, rule of law, civic position.

ПОНЯТИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕГО ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье анализируются значение понятия правовой культуры, её философские основы и значение в развитии общества. Правовая культура охватывает правовые знания, сознание и отношение граждан, при этом важную роль в её формировании играют образование, правовое воспитание и социальная среда. Подчеркивается необходимость рассматривать данное понятие с точки зрения различных наук — философии, социологии, психологии и юриспруденции.

Ключевые слова: Правовая культура, личность и общество, правовые знания, сознание и отношения, правовое сознание, внутренние отношения, свобода, справедливость и духовные ценности, справедливость, свобода и ответственность, правовые отношения, верховенство закона, гражданская позиция.

Kirish. Huquqiy madaniyat – bu fuqarolarning huquqiy bilimlari, huquqiy ongi, huquq normalariga bo'lgan munosabati va ularni amalga tatbiq etish madaniyatidan iborat murakkab ijtimoiy hodisadir. Bu tushuncha o'zida huquqni bilish, uni tushunish, hurmat qilish, huquqiy qadriyatlarga tayangan holda faol hayot kechirish kabi jihatlarni mujassam etadi. «Xuquq madaniyati»-keng ko'laml, manodor tushunchadir. Uning tahlili mahsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir. Huquqiy madaniyat tushunchasi inson va jamiyat munosabatlarining huquqiy asoslarda shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvini aks ettiradigan murakkab va ko'p qirrali ma'naviy-huquqiy hodisadir.

U nafaqat fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlarini, balki ularning huquqqa, qonunga, adolatga va jamiyatdagi huquqiy tartibotga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Shu jihatdan, huquq madaniyati keng qamrovli, mazmunan boy va alohida ilmiy tahlilni talab qiluvchi mavzudur.

1. Huquq madaniyatining ma'no xususiyatlari.

Har qanday madaniyat singari, huquq madaniyati ham muayyan bilim, tushuncha, ko'nikma va qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Lekin u boshqa turdagi madaniyatlardan (masalan, estetik, ekologik yoki mehnat madaniyatidan) farqli ravishda, davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. U quyidagi omillarni qamrab oladi:

Huquqiy bilimlar darajasi – insonning amalga oshirilayotgan qonunlar va huquqiy normalar haqida xabardorligi.

Huquqiy ong – huquqiy voqelikni anglash, baholash va unga munosabat bildirish qobiliyati.

Huquqiy faollik – fuqarolik burchini ado etish, o'z huquqlarini himoya qilish va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etish istagi.

Bu jihatlar huquq madaniyatini faqat nazariy bilimlar to'plami emas, balki amaliy va faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida ham namoyon qiladi.

2. Tushunchaning keng ko'lamliligi.

Huquq madaniyatini faqat huquqshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish yetarli emas. Chunki u turli fanlar kesishuvida namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-ma'naviy tizimdir. Masalan:

Falsafiy nuqtai nazarda, huquq madaniyati adolat, erkinlik va inson qadr-qimmatini kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq.

Sotsiologiyada u jamiyatning huquqiy hayotga munosabati, huquq normalarining hayotga tatbiq etilish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Psixologiya bu sohada inson ongida huquqiy qadriyatlar qanday shakllanishi, uning huquqiy qaror qabul qilishdagi tafakkuri va hissiy holatini o'rganadi.

Pedagogikada esa huquqiy tarbiya va ta'lim orqali yosh avlodda huquq madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Demak, huquq madaniyati faqat bir sohaga oid bo'lmagan, balki turli fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin bo'lgan kompleks hodisadir.

Yoshlar xuquqiy madaniyatini o'rganish, uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o'rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar xuquqiy madaniyati tushunchasi xuquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki yoshlar xuquqiy madaniyatiga berilgan xar qanday tarif ham muayyan tarixiy jixatdan uning mazmunini to'la-to'kis ochib bermaydi.

Yoshlarning xuquqiy madaniyatini muayyan-tarixiy tushunish, unda bu tushuncha tizimi va kelib chiqishi jixatidan predmetning subyektiv mazmunini takrorlaydi, yoshlarning xuquqiy madaniyatini ijtimoiy ong shakllaridan biri deb tushunishni istisno etmasligi u yoqda tursin, hatto taqazo etadi ham [1].

Yoshlar xuquqiy madaniyati tushunchasiga tarif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o'tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda xuquq va madaniyat tushunchalari bilan o'zaro tadqiq qilish katta o'rin tutadi deydi R. Maxmudov o'zining «Xuquq va madaniyat» nomli risolasida [2]. «Madaniyat atamasi» o'z xajmi va mazmuni jixatidan xilma-xil bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Falsafiy adabiyotlarda «Madaniyat» tushunchasiga 500 dan ortiq tarif berilgan bo'lib, bu ko'rsatkich doim o'sib bormoqda. «Madaniyat» kategoriyasiga berilgan eng ko'p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo'lga kiritilgan moddiy va manaviy qadriyatlar yig'indisi deb qarashdir [3].

Biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini subyektning manaviy rivojlanish darajasi bilan bog'lab o'rganishdir. Xuquqiy madaniyatni o'rganishda, bu fikr ham o'ziga xos o'rin tutadi, chunki subyektning xuquqiy madaniyati darajasi xuquqiy madaniyatni tasniflashda uni o'rganishda asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Jaxon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo'lish mumkin: yani antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv [4]. Huquqiy madaniyatni o'rganish jarayonida inson - ya'ni huquqiy faoliyat subyekting shaxsiy madaniyat darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu jihat huquqiy madaniyatni tasniflash va tahlil qilishda metodologik yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Jahon ilm-fanida madaniyatga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratiladi: antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuvlar. Bu yondashuvlar orqali huquqiy madaniyatning mazmuni va vazifalari chuqurroq anglanadi. Antropologik yondashuvda madaniyat tabiat erishgan narsalardan farqli ravishda inson tomonidan yaratilgan nematlarni yig'indisi sifatida tushuniladi. Sotsiologik yondashuv madaniyatni manaviy qadriyatlar sifatida talqin etadi.

Bu yerda madaniyat ijtimoiy xayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Falsafiy yondashuvda esa madaniy xodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lmagan sof tahliliy holda ajratib ko'rsatiladi [1]. Yuqoridagi fikrlardan shunday savol kelib chiqadiki: madomiki, madaniyat tushunchasi umummilliy manoga taaluqli ekan yani bir qator fanlarda qo'llanilar ekan, uning tarifini berishning imkoni va umuman zarurati o'zi bormi? - degan savol tug'iladi. Shuning uchun ham madaniyat va huquqning o'zaro aloqadorligini, uning birligi muammosini aniq bir madaniyatga berilgan tarif bilan emas, balki u yoki bu «madaniyat» tushunchasi doirasida aniqlab, uning o'ziga xos muayyan tarifini ishlab chiqishga harakat

qilamiz. Sobiq ittifoq madaniyatshunosligida eng ko'p tarqalgan madaniyat haqidagi talimotlardan biri bu mavzuning qadr – qimmatiga tug'risida bo'lib, uni moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui yoki qadriyatlar tizimi asosida marifatga asoslangandir [5]. Uning aloxida bilim saviyasidan tadqiqotlar yotadiki, madaniyat tushunchasi bashariyat faoliyatining ijtimoiy – tarixiy amaliyoti davomidagi jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi yakuniy majmua sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazmunini aniqlash esa, moddiy ishlab chiqarishga band bo'lgan kishilar qaytib faoliyatining xilma xil unsurlarini ko'rsatib o'tish, ularning axloqiy, siyosiy, xuquqiy, maishiy va boshqa tomonlarini qayd etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga “aksiya” – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta'limot) unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo'ladigan inson faoliyati “madaniy” yoki “madaniyatsiz” sifatida baholanadi. Ma'lumki, huquq va madaniyat o'zaro bog'liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi xamda taminotning ijtimoiy rivojlanish darajasining o'lchovi sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, madaniyat, sotsiologik ma'noga, inson o'zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta'riflaydigan mualliflarning xam fikricha qo'shilmoq lozim.

Yaqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to'liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs xuquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko'rsatilar edi: shaxsning o'z xuquqlarini bilishi, qonun va boshqa meyoriy xujjatlarning mazmuni va nimaga yo'naltirilganini aniqlashi unga nisbatan xurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni xis qilish.2 Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning xuquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta'rif beradigan bo'lsak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: yoshlarning xuquqiy madaniyati ularning xuquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan xurmati, xuquqiy normalarni ijro etish xayotga tadbiiq eta olish ko'nikmasi, xuquq buzarlklarga nisbatan murosasizlik, qonunlari ijoatkorlik, xuquqiy faollik xamda tashabbuskorlik darajasidir. Yoshlarni yuksak xuquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytadigan bulsak, huquqiy madaniyat – insonning xuquqiy ongi, huquqiy bilimi va faol fuqarolik pozitsiyasini qamrab olgan murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisadir. U faqat qonunlarni bilish bilan cheklanmay, balki huquqiy munosabatlarda ongli ishtirok etish, qonunga hurmat va adolat tamoyillarini qadrlashni ham o'z ichiga oladi.

Falsafiy nuqtai nazardan huquqiy madaniyat – inson va jamiyat, erkinlik va mas'uliyat, huquq va adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi ma'naviy asosdir. Bu tushuncha inson ongida huquqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolatni qaror toptirishda muhim o'rin tutadi.

Huquqiy madaniyatni chuqur o'rganish turli ilmiy yondashuvlarni talab qiladi va uning tub mohiyatini anglash uchun antropologik, sotsiologik va falsafiy qarashlar birgalikda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy madaniyat – jamiyat taraqqiyoti va shaxsning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. U faqatgina qonunlarni bilish yoki huquqiy normalarni tushunish bilan chegaralanmay, balki insonning huquqqa, adolatga va erkinlikka bo'lgan ongli munosabatini, faol fuqarolik pozitsiyasini ham qamrab oladi. Huquqiy madaniyat shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi va huquqiy bilim, huquqiy ong hamda huquqiy faollik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyatni falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida o'rganish zarur. Chunki u nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki amaliy faoliyat, jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlash va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish vositasidir. Ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularni huquqiy ong va mas'uliyat ruhida tarbiyalash, kelajakda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishda asosiy shartlardan biridir.

Huquqiy madaniyat tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra keng qamrovli va ko'p qirrali bo'lib, uni alohida ilmiy tadqiq etish, turli fanlar kesimida tahlil qilish zarurati tug'iladi. Antropologik yondashuv huquqiy madaniyatni insoniyat yaratgan qadriyatlarining bir qismi sifatida talqin etsa,

sotsiologik qarashlar uni jamiyatdagi huquqiy munosabatlar darajasi bilan bog'laydi, falsafiy nuqtai nazar esa huquqiy madaniyatni erkinlik, adolat va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi ma'naviy poydevor sifatida ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat – inson va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning sifatini belgilovchi, qonun ustuvorligi va adolatni qaror toptirishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Uni yuksaltirish orqali fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda qonuniylik va adolatni mustahkamlash, erkinlik va mas'uliyat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda inson huquqlarining to'laqonli kafolatlanishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Todjixonov U, Saidov N. Huquqiy madaniyat nazariyasi T2.-T O'z. R IIV Akad. 1998
2. Mashmudov R. Huquq va madaniyat. T. O'zbekiston, 1994 yil 4-b
3. Малая Советская энциклопедия. -Т5-М, 1959-С.238
4. Ковалзон М.Я Место понятие, «Культура» в системе категория истарического материализма 1976-С122.
5. Кушкмина Е.И. Познание, язкк культура. М.Г.У. 1984. 40-бет